

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 216 (1277), 2024-yil 25-oktabr, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZBEKISTON BARQAROR TARAQQIYOTNING UMUMIY MAQSADLARI YO‘LIDA STRATEGIK VA O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIKKA TAYYOR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 23-24-oktabr kunlari BRIKS birlashmasi davlatlarining sammitida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Qozon shahrida bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari 24-oktabr kuni “BRIKS plus” sammitining yalpi majlisida nutq so‘zlagi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin raisligida o‘tkazilgan

tadbirda Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szpin, Janubiy Afrika Respublikasi Prezidenti Siril Ramafosa, Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi, Eron Islom Respublikasi Prezidenti

Mas‘ud Peshshkiyon, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog‘iston

Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti

Serdar Berdimuhamedov, Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan, Vyetnam Sotsialistik Respublikasi Bosh vaziri Fam Min Tin, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, boshqa bir qator

davlatlar, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy tuzilmalarning rahbarlari hamda yuqori darajali vakillari ishtirok etdi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “BRIKS PLYUS” FORMATIDAGI SAMMITDA SO‘ZLAGAN NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Rossiya Federatsiyasi Prezidenti hurmatli Vladimir Vladimirovich Putin Janoblariga an‘anaviy samimiy qabul hamda Sharq va G‘arb madaniyatlarini uyg‘unlashtirish va ming yillik tarixga ega bo‘lgan qadimiy Qozon shahrida tadbirimizni yuksak darajada tashkil etgani uchun bildirilgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Hurmatli hamkasblarimning nutqlari global rivojlanishning dolzarb masalalarida keng mulohaza va ochiq muhokamalar uchun “BRIKS plus” formatidagi uchrashuvlar muhim ekanini tasdiqlamoqda.

Afsuski, bugungi kunda dunyo jadal bo‘linib bormoqda. Insonlarga ulkan azob-uqubatlar, og‘ir iztirob va o‘rmini to‘ldirib bo‘lmaydigan yo‘qotishlar keltirayotgan urush va mojarolar soni ortmoqda.

Jahon iqtisodiyoti va savdosining parchalanib borayotgani tengsizlik, texnologik uzilishlar va proteksionizmni kuchaytirmoqda. Mamlakatlar o‘rtasida yangi to‘siqlar vujudga kelmoqda.

Bunday sharoitda teng huquqlilik, bloklardan xolilik, bir-birining manfaatlarini

hisobga olish, suverenitetga hurmat va o‘zining mustaqil taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lish huquqi kabi tamoyillarga asoslanib harakat qilayotgan BRIKS o‘zini ko‘p tomonlama hamkorlik hamda sheriklikning nufuzli va rivojlanib borayotgan tuzilmasi sifatida namoyon etmoqda.

O‘zaro aloqalarning bunday modeli Birlashgan Millatlar Tashkilotining markaziy rolini saqlagan holda jahon tartibotining bugungidagi ko‘ra adolatliroq yangi arxitekturasini shakllantirish uchun mustahkam asos bo‘lishi mumkinligiga ishonamiz.

Geosiyosiy raqobat, milliy egoizm va mafkuraviy qo‘lqoplar xoli bo‘lgan, konstruktiv mulohaza va o‘zaro global murosaga erishish bo‘yicha yangragan da‘vatlarni qo‘llab-quvvatlayman.

Jahondagi boshqaruv institutlarini isloh qilish hamda “Janub — Janub” va “Shimol — Janub” formatlaridagi mas‘uliyatli mulohazalarni kengaytirishning vaqti keldi, deb hisoblaymiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari! Rossiyaning BRIKSga samarali raisligi davrida O‘zbekiston ushbu tuzilmaning Yoshlar

sammiti va Sport o‘yinlarida, yuridik va parlament forumlarida, xavfsizlik sohasidagi yuqori darajadagi uchrashuvda va boshqa tadbirlarda faol ishtirok etdi.

Biz bundan buyon ham BRIKS davlatlari bilan sheriklik aloqalarini faol rivojlantirish niyatidamiz. Ushbu birlashma doirasida ochilayotgan yangi imkoniyatlardan samarali foydalanamiz.

BRIKS mamlakatlarining global tengsizlik va iqtisodiyotni inklyuziv yo‘l bilan qayta tiklash muammolarini hal etish maqsadida hamkorlikni rivojlantirish borasidagi fundamental sodiqlikiga qo‘shilamiz.

Bu o‘rinda gap, eng avvalo, rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘tkir ijtimoiy va ekologik tahdidlarni hal etish, kambag‘allik darajasini kamaytirish, texnologik tafovutlarni qisqartirish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan milliy taraqqiyot dasturlarini faol qo‘llab-quvvatlash haqida bormoqda. Bunda ko‘p tomonlama moliya institutlari muhim o‘rin tutishi mumkin va shart.

O‘zbekiston ustuvor investitsiyaviy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun

BRIKSning yangi Taraqqiyot banki bilan yaqin hamkorlik o‘rnatishni rejalashtirgan.

Biz, shuningdek, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, “yashil” taraqqiyot va energetika, to‘siqlarsiz elektron tijorat kabi sohalarda amaliy hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdormiz.

BRIKS sun‘iy intellekt bo‘yicha Tadqiqot guruhining sohadagi ehtimoliy xavflarning oldini olish va boshqaruvning yagona standartlarini ishlab chiqishga oid hamkorlikdagi qo‘shma loyihalarda ishtirok etishni mo‘ljallamoqdamiz.

BRIKSning Sanoatning rivojlanishi bo‘yicha tashkiloti (UNIDO) huzurida tashkil etilayotgan Kompetensiyalar markaziga, shuningdek, taklif etilayotgan Investitsiya platformasiga qo‘shilishga tayyormiz.

BRIKSdagi sheriklarimiz bilan birgalikda transport sohasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish, yangi transkontinental yo‘laklarni yaratish, yetkazib berishning ishonchli logistika zanjirlarini shakllantirish, kabotaj tashuvlar tizimini rivojlantirish borasida yaqindan ish olib borish niyatidamiz.

Shuningdek, oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta‘minlash, iqlim o‘zgarishlarining

salbiy oqibatlarini bartaraf etish, sog‘liqni saqlash masalalari ham bizning e‘tiborimiz markazida bo‘ladi.

Tashkilot doirasida ishbilarmonlar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaymiz.

Barcha manfaatdor mamlakatlarga BRIKSning Ishbilarmonlar kengashiga qo‘shilish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishni taklif etamiz.

Hurmatli hamkasblar!

BRIKS makonida xalqaro terrorizm bilan bog‘liq xavf va tahdidlarga qarshi kurashish masalalari, hech shubhasiz, sherikligimizning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

Radikallashuv va ekstremistik g‘oyalarning, avvalo, yoshlar o‘rtasida tarqalishining oldini olishga alohida e‘tibor qaratishimiz zarur.

Yaqin Sharqdagi tobora keskinlashib borayotgan mojaro bizni ham tashvishga solmoqda. Bu mintaqaga qo‘shni mamlakatlar va yirik davlatlarning bu mojaroga tortilishi bilan global inqirozning yirik o‘chog‘iga aylanib bormoqda.

Biz G‘azo va Livandagi misli ko‘rilmagan gumanitar fojiani qalbimizdagi og‘riq hissi

bilan qabul qilyapmiz. Tinch aholi, ayniqsa, bolalarning begunoh qurbon bo‘lishini hech qanday siyosiy maqsadlar oqlay olmaydi.

Bugungi kunda o‘t ochishni zudlik bilan to‘xtatish va jabrlanganlarga shoshilinch yordam ko‘rsatish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardir. Isroil — Falastin muammosining yagona yechimi — “ikki xalq uchun ikki davlat” tamoyili asosida mojaroni tinch yo‘l bilan hal qilish bo‘lib qolmoqda, deb hisoblaymiz.

Global va mintaqaviy xavfsizlik haqida gapirganda, Afg‘oniston muammosini chetlab o‘tish mumkin emas. Bizning umumiy vazifamiz — ushbu mamlakati yakalash emas, balki Afg‘oniston xalqiga va uning amaldagi hokimiyatiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, tinch qurilish va taraqqiyotning dolzarb muammolarini hal etishda yordam ko‘rsatishdir.

Hurmatli sammit ishtirokchilari! O‘zbekiston barqaror taraqqiyotning umumiy maqsadlariga erishish uchun BRIKS mamlakatlari bilan yaqin va o‘zaro manfaatli hamkorlikka tayyor.

E‘tiboringiz uchun rahmat.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI VA FAXRIYLARIGA

Hurmatli ichki ishlar tizimi xodimlari! Qadrlif ofitser va generallar, serjant va sardorlar!

Muhtaram faxriylar! Siz, azizlarni bugungi qutlug‘ kasb bayramingiz bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu quvonchli ayyomda sizlarning xalqimiz osoyishtaligini ta‘minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi katta xizmatlaringizni yana bir bor minnatdorlik bilan e‘tirof etamiz.

Hozirgi kunda “Barcha islohot va o‘zgarishlar — inson qadriini ulug‘lash uchun” degan ezgu tamoyil asosida butun yurtimizda fuqarolarimiz uchun munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratish,

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH XODIMLARNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligi, xalqimiz osoyishtaligini ta‘minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga qo‘shgan munosib hissasi, jinoyatchilikka qarshi kurashish, profilaktika ishlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi alohida xizmatlari, muqaddas qasamyodiga sodiq qolib, sharafli burchini bajarishda mardlik va jasorat namunasini ko‘rsatgani, sohada professional kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash yo‘lidagi ibratli faoliyati uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan

Almatov Zakirjon — O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining maslahatchisi

“Mardlik” ordeni bilan

Mardonkulov Nodirjon Kodirjonovich (marhum) — Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

Davomi 2-betda

Mening tanlovim — obod Vatanim!

VATANIMIZ TAQDIRI UCHUN BARCHAMIZ MAS‘ULMIZ

27-oktabr, yakshanba kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi bo‘lib o‘tadi. Ushbu ulkan siyosiy tadbirga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rildi.



Mamlakatimiz fuqarolari konstitutsiya-viy huquqlaridan foydalanib, saylovda erkin ovoz berishi uchun joylarda barcha sharoitlar yaratildi. O‘zbekiston hududida jami 11 ming 28 ta, qirqa xorijiy mamlakatda tuzilgan 57 ta saylov uchastkasi ovoz berish uchun tayyorlab qo‘yildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Xalq deputatlari mahalliy kengashlariga “Mening tanlovim — obod Vatanim!” shiori ostida o‘tadigan ushbu saylov mamlakatimiz siyosiy hayotidagi muhim voqeadir.

Davomi 2-betda

2024-yil 25-oktabr, 216-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI VA FAXRIYLARIGA

Boshlanishi 1-betda

Xususan, Xiva tumanining Istiqlol mahallasi namuna sifatida belgilanib, shu asosda 314 ta kriminogen vaziyati og'ir mahallada raqamlashtirish jarayoni to'liq amalga oshirildi. Yonma-yon joylashgan, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarni kichik hududlarga ajratgan holda, ularda yangicha ish uslublari orqali jamoat tartibini saqlash bo'yicha Namangan shahar tajribasi yaratildi.

Profilaktika, patrul-post va probatsiya xizmatlari inspektorlarining faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish, xodimlarning bilim darajasini oshirish orqali hududlarda xavfsiz muhit yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar o'tkazilmoqda. Xususan, Buxoro viloyatida mahallalar jamoat joylarida huquqbuzarliklarning oldini olish uchun kichik hajmdagi dronlardan foydalanish tajriba tariqasida yo'lga qo'yildi.

Eng muhimi, biz yosh avlodimizning sog'lom hayoti va kelajagini ta'minlash uchun gijovandlikning oldini olish, yoshlarda bunday vositalarga nisbatan kuchli immunitetni shakllantirish hamda ularning noqonuniy aylanmasiga, ayniqsa, internet tarmoqlari orqali tarqalishiga chek qo'yishga qaratilgan milliy strategiyamizni qabul qildik va uni qat'iy ijo etishga kirishdik.

Ana shunday islohotlar natijasida jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha yondashuvlar tubdan o'zgaridi. Huquqbuzarlik sodir etishi yoki undan jabrlanishi mumkin bo'lgan fuqarolarni profilaktika inspektorlari vaqtida aniqlashlar hamda mavjud muammolar "mahalla yetiligi" tomonidan samarali hal etilishi uchun ijtimoiy profilaktika tizimi va uning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari yaratildi. Jinoyatchilikka odd tendensiyalarni kompleks ilmiy

yondashuvlar asosida aniqlash, tizimlashtirish va salbiy omillarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish maqsadida Ichki ishlar vazirligi tizimida O'zbekiston Kriminologiya tadqiqot instituti ish boshladi.

Qayd etish lozimki, respublikamizda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda. Misol uchun, Buyuk Britaniyaning Iqtisodiyot va tinchlik instituti tomonidan o'tgan yili e'lon qilingan reyting ko'rsatkichlari bo'yicha O'zbekiston jahonning 121 ta mamlakati orasida eng xavfsiz davlat deb tan olindi. Bunday yutuq bizga mamnuniyat bag'ishlash bilan birga, katta mas'uliyat ham yuklaydi.

Aziz do'stlar!

Tizim xodimlarining kasb mahoratini oshirish, ularning ijtimoiy-huquqiy himoyasini kuchaytirish masalasi ham doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. Bu jarayonda, avvalo, olis va chekka hududlarda joylashgan hamda kriminogen vaziyat og'ir bo'lgan tuman va mahallalarda xizmat qo'yayotgan xodimlar mehnatiga alohida ahamiyat berilib, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitlari yaratilmoqda.

Albatta, bugungi shiddatli taraqqiyot asrida ichki ishlar organlarining kundalik faoliyatini innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va ilm-fan yutuqlariga tayangan holda tashkil etish — mamlakatimizda huquq-tartibotni yanada mustahkamlashning muhim omili ekanini sizlar yaxshi tushunasiz.

Shuning uchun tizimda olib borilayotgan keng ko'lamli islohot va yangilanishlarni bundan buyon ham izchil davom ettiramiz. Jumladan, yangi turdagi jinoyatlar hamda axborot vositalari yordamida sodir etilayotgan

huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda ta'sirchan mexanizmlarni qo'llash, kriminogen vaziyat bo'yicha "qizil" toifada bo'lib kelayotgan mahallalarda ilmiy yondashuvlar asosida jinoyatchilikni jilovlash yuzasidan manzilli ish olib borishimiz, tergov sifatini oshirish orqali aholi o'rtasida bu sohada adolatga bo'lgan qat'iy ishonchni shakllantirishimiz lozim.

Muxtasar aytganda, ichki ishlar tizimidagi o'zgarishlarning amaliy natijasini xalqimiz o'z kundalik hayotida doimo sezishi, his etishi shart.

Hurmatli soha xodimlari!

Fursatdan foydalanib, siz, azizlarga o'z xizmat burchingiz va muqaddas qasamyodingizga doimo sodiq qolib, Vatanimiz va xalqimizga fidokorona xizmat qilib kelayotganingiz uchun chin dildan tashakkur bildiram.

Hech shubhasiz, sizlarning mashaqqatli va sharaflil mehnatingizni munosib rag'batlantirish kelgusida ham davlatimiz va jamiyatimizning e'tibor markazida bo'ladi. Ushbu qutlug' ayyomda el-yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lida halok bo'lgan mard va jasur soha xodimlarining xotirasini hurmat va ehtirom bilan yod etib, ularning oilalari va farzandlariga bayram tabrigimiz va ezgu tilaklarimizni yo'laymiz.

Sizlarni O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlari kuni bilan yana bir bor samimiy qutlab, barchangizga mustahkam sog'liq, oilalaringizga baxt-saodat, tinchlik va fayz-u baraka, mas'uliyatli faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH XODIMLARNI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Boshlanishi 1-betda

"Do'stlik" ordeni bilan

Gorbatevich Viktoriya Aleksandrovna — Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi tergov bo'limi katta tergovchisi

"Jasorat" medali bilan

Murodov Jurabek Muxamadiyevich — Samarqand viloyati Oqdaryo tumani ichki ishlar bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Suyarov Sherzod Raxmatullayevich — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o'ta muhim ishlar bo'yicha tezkor vakili

"Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan

Askarov Uktam Baxromovich — Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari — jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i

Qodirov Sayidakbar Maxamatsodiqovich — Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi yo'l-patrul xizmati inspektori

Qo'shbarmoqov Ulug'bek Sangirqulovich — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Markaziy tergov hibxonasi xodimi

Mirsadikov Dilmurod Mirxamdamovich — Toshkent shahar Uchtepa tumani bo'yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i

Muydinova Gulnora Toshpulatovna — Farg'ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi ekspert-kriminalistika bo'limi bosh eksperti

Sayidov Nodirbek Bahodirovich — Toshkent viloyati Olmaliq shahar ichki ishlar bo'limi boshlig'i

Xojiyeva Marxabo Xikmatullayevna — Navoiy shahar ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi tergov bo'limi katta tergovchisi

Xudayarov Nizomjon Rajabbayevich — Xorazm viloyati Xonqa tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

"Sog'lom turmush" medali bilan

Adilova Gulshod Pulatovna — Toshkent shahar Ichki ishlar boshqarmasi tibbiyot bo'limi bosh shifokori

"Shuhrat" medali bilan

Aliboyev Mamatali Hazratqulovich — Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo'l

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2024-yil 23-oktabr

harakati xavfsizligi boshqarmasi yo'l-patrul xizmati inspektori

Dustov Zafar Abirovich — Jizzax viloyati Arnasoy tumani ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rinbosari

Indiaminov Farrux Nuriddinovich — Samarqand shahar bo'yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 8-son ichki ishlar bo'limi boshlig'i

Kazaxbayev Malik Perdebayevich — Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jamoat tartibini saqlash boshqarmasi patrul-post xizmati inspektori

Kuchkarov Turg'un Raximbayevich — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi boshlig'i o'rinbosari — ichki ishlar organlari faoliyatini uslubiy ta'minlash markazi boshlig'i

Qosimov Utkirbek Soibjonovich — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bo'lim boshlig'i

Niyazov Feruz Jumanazarovich — Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani ichki ishlar bo'limining 1-son ichki ishlar bo'limasi boshlig'i

Xidirov Yusufjon Iloxomjonovich — Namangan viloyati Tashkentda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi boshlig'i

SH. MIRZIYOYEV

25-oktabr — Ichki ishlar organlari xodimlari kuni

YURTGA XIZMAT QILISH SAODATI



Azizjon FAYZIYEV,
podpolkovnik

Islohotlar — amalda

Keyingi yillarda yurtimizda ichki ishlar organlari xodimlarini xalqqa yaqinlashtirish, el dardi va tashvishi bilan yashashga, xizmat qilishga qaratilgan ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolar ongida "Qonun — ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar" hayotiy tamoyilini qaror toptirish bo'yicha amaliy ishlar qilinmoqda.

Ma'naviyatli, vatanparvar, sadoqatli

Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish borasida samarali ishlar qilinmoqda.

Barcha sohalar singari ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi o'rtasida ham ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarish, xodimlarning bilim saviyasini yanada yuksaltirish, ma'naviyatli, vatanparvar, kasbga sadoqatli va fidoyi xodimlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi asosidagi "Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish — oliy burchimiz!" konseptual g'oyasi soha xodimlarining xizmat burchini bajarish borasida qat'iy hayotiy e'tiqodni qaror toptirish, ularning vatan va xalq taqdiriga, davlatimiz hamda islohotlar talablariga daxldorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda jamiyatda kitobning ma'naviy hamda axloqiy ozuqa, madaniyat va til ravnaqi uchun asosiy manba, ajdoddan avlodlarga o'tib kelayotgan intellektual meros sifatida mavqei hamda ahamiyatini saqlash va hatto tiklashga ehtiyoj sezilyapti. Xususan, ichki ishlar organlarida kitob yarmarkalari, "Zukko kitobxon" tanlovlari o'tkazilishi xodimlar o'rtasida kitobxonlikni ommalashtirish, ularning kitobga qiziqishini rag'batlantirishda muhim omil bo'lmoqda.

Ichki ishlar organlarida halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy

maqsad, deb biladigan vatanparvar xodimlar juda ko'p. Aynan shunday xodimlar va ularning fidokorona xizmatlari tufayli tizimda ma'naviyatning barqarorligi bardavomdir.

Ichki ishlar xodimlariga qo'yiladigan asosiy talablar qatorida Kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksida muomala madaniyatiga rioya etish, murojaat qilgan shaxsni e'tibor bilan tinglash, qo'pollik va loqaydlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish, holatga xolisona va vijdonan yondashish orqali shaxsiy namuna ko'rsatish ham belgilangan.

Bir so'z bilan aytganda, asosiy maqsad ichki ishlar organlarini xalqchil tuzilmaga aylantirish, tizimda o'z kelajagiga yangicha qaraydigan, vatanga va xizmat burchiga sadoqat ruhi bilan tarbiyalanayotgan, el-yurt xizmatiga shay, yuragi yonib, ko'zlaridan o't chaqnaq turan tashabbuskor va fidoyi kadrlarni tayyorlashdir.

Sharaf degan so'zga shon bergan ham siz

Osoyishtalik posbonlarini xizmat burchiga sadoqat, vatanparvarlik, halollik ruhi bilan tarbiyalash, yuqori kasbiy va javangar tayyorgarlikka ega bo'lishiga erishish vazirlik rahbariyatining doimiy diqqat markazida. Tizimdagi tub islohotlar sobitqadamlik bilan davom ettirilmoqda. Natijada xodimlarning huquq va vakolatlari kengaydi, ayni paytda mas'uliyat ham oshdi, ulami huquqiy va ijtimoiy tomondan himoyalash asoslari yaratildi. Bugungi kunda ichki ishlar organlarining faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida shaxsiy tarkib



zimmatisiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga layoqatli, ma'naviy yetuk, ruhiy va jismoniy jihatdan barkamol, malakali xodimlar bilan jamlash zarurati ko'rilmoqda.

Ayni paytda ichki ishlar organlari tizimida "Eng yaxshi profilaktika inspektori", "Eng yaxshi tergovchisi", "Eng yaxshi tezkor xodim", "Eng yaxshi hududiy ichki ishlar organi boshlig'i", "Eng yaxshi kitobxon", "Eng yaxshi murabbiyi", "Eng faol faxriy", "Eng yaxshi ekspert", "Eng yaxshi ma'naviy-ma'rifiy ishlar targ'ibotchisi" kabi o'nlab tanlovlar an'anaviy ravishda o'tkazib kelinmoqda. Ushbu tanlovlarda o'z kasbining mohir ustalari kashf etilmoqda.

Shaxsiy tarkibning kasb mahoratini yuksaltirish, javangar va jismoniy tayyorgarligini doimiy oshirib borish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. Zamon talablari asosida barpo etilgan sport zali, qo'l jangi zali, trenajyor xonalari, o'q o'tish tiri, xizmat o'quv xonasi va test markazlari xodimlar ixtiyorida. Javangar o'qotar qurollarni bilish, ularni tarkibiy qismlar, to'liqsiz qismlarga ajratish va yig'ish, xavfsizlik qoidalarga

rivojlantirish borasida yaqindan ish olib borishga tayyorligini bildirdi.

Oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta'minlash, iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, sog'liqni saqlash masalalarida ham hamkorlik qilish muhim ekanini qayd etildi.

Tashkilot doirasida ishbilanmonlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlab, davlatimiz rahbari barcha manfaatdor mamlakatlarga BRIKSning Ishbilanmonlar kengashiga qo'shilish imkoniyatlarini ko'rib chiqishni taklif etdi. Xalqaro terrorizm bilan bog'liq xavf va tahdidlarga qarshi kurashish haqida so'z yuritir ekan, O'zbekiston rahbari radikalashuv va ekstremistik g'oyalarning, avvalo, yoshlar o'rtasida tarqalishining oldini olishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatib o'tdi.

Yaqin Sharqdagi mojaro tobora keskinlashib borayotgani, bu mintaqada qo'shni mamlakatlar va yirik davlatlarning bu mojaraga tortilishi bilan global inqirozning yirik o'choq'iga aylanib borayotgani alohida tashvish bilan qayd etildi.

Biz G'azvo va Livandagi misli ko'rilmagan gumanitar fojiani qalbmizdagi og'riq hissi bilan qabul qilaymiz. Tinch aholi, ayniqsa, bolalarning begunoh qurbon bo'lishini hech qanday siyosiy maqsadlar oqlay olmaydi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi kunda o'z ochishni zudlik bilan to'xtatish va jabrlanganlarga shoshilinch yordam ko'rsatish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar ekanini ta'kidlandi.

— Biz G'azvo va Livandagi misli ko'rilmagan gumanitar fojiani qalbmizdagi og'riq hissi bilan qabul qilaymiz. Tinch aholi, ayniqsa, bolalarning begunoh qurbon bo'lishini hech qanday siyosiy maqsadlar oqlay olmaydi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

— Iсроil — Falastin muamosining yagona yechimi — "ikki xalq uchun ikki davlat" tamoyili asosida mojaroni tinch yo'l bilan hal qilish bo'lib qolmoqda, — dedi Prezident.

Afg'oniston muammosiga o'xtalib, davlatimiz rahbari ushbu mamlakatni yakkaisha emas, balki Afg'oniston xalqiga va uning amaldagi hokimiyatiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, tinch qurilish va taraqqiyotning dolzarb muammolarini hal etishda yordam ko'rsatish umumiy vazifa ekanini qayd etdi. So'zining yakunida O'zbekiston yetakchisi barqaror taraqqiyotning umumiy maqsadlariga erishish uchun BRIKS mamlakatlari bilan yaqin va o'zaro manfaatli hamkorlikka tayyorligini ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BRIKS sammiti doirasida Vyetnam Sotsialistik Respublikasi Bosh vaziri Fam Min Tin bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda O'zbekiston bilan Vyetnam o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik va amaliy aloqalarni, ayniqsa, savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohalarida rivojlantirish masalalarini muhokama qilindi. Hukumatlararo va idoralararo muloqotlarga tizimli tus berish zarurligi ta'kidlandi. Tomonlar kelgusi yil boshida Xanoy shahrida Savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha qo'shma komissiyaning navbatdagi yig'ilishini, shuningdek, biznes forumi va sanoat ko'rgazmasini o'tkazishga kelishib oldilar.

Yangi loyihalarni ilgari surish maqsadida neft-kimyo, elektrotexnika, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturini tayyorlash taklif etildi. Ishbilanmonlik va sayyohlik aloqalarini, shu jumladan, vizasiz tartib joriy etish orqali kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bo'lajak oliy va yuqori darajadagi uchrashuvlar jadvali ko'rib chiqildi. Bosh vazir Fam Min Tin O'zbekiston Prezidentini rasmiy tashrif bilan Vyetnamga kelishga taklif etdi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozon shahriga amaliy tashrifi yakunlandi.

O'ZA

Mening tanlovim — obod Vatanim!

VATANIMIZ TAQDIRI UCHUN
BARCHAMIZ MAS'ULMIZZayniddin NIZOMXO'JAYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Markaziy saylov
komissiyasi raisi,
O'zbekiston Qahramoni

Boshlanishi 1-betda

Saylov — bir kunda o'tadigan siyosiy tadbir. Unga tayyorgarlik esa oylar, hatto yillar mobaynida davom etadigan g'oyat mas'uliyatli jarayon. Shu jihatdan olib qaraganda, bu yilgi saylovga tayyorgarlik saylov kampaniyasi e'lon qilingan kundan ancha avval boshlangani ta'kidlash o'rinni.

Yangi O'zbekistonda xalq farovonligini yanada yuksaltirish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatimizni modernizatsiya qilish maqsadida parlament va siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, saylov va referendumlarni o'tkazish tartibini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lami, izchil va yuksak samarali o'zgarishlar yuz bermoqda. Xalqimiz mehri qozongan qat'iy siyosiy iroda va dadillik xalqaro standartlarga muvofiq kechayotgan keng ko'lami islohotlarga yanada izchillik va yuksak sur'at bag'ishlamog'ga.

DEMOKRATIK
TAMOIYILLAR ASOSIDA

Ushbu o'zgarishlar samarasida milliy parlamentimiz va mahalliy kengashlar vakollari kengaytirilib, faoliyatidagi demokratik tamoyillar yanada mustahkamlandi. Bu esa aholining parlament va mahalliy kengashlar deputatligiga nomzod ko'rsatish va saylov jarayoniga qiziqishini sezilarli darajada oshirgani joriy yildagi saylov kampaniyasida yaqqol sezildi.

2023-yil 18-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunga binoan mamlakatimiz saylov qonunchiligiga qator yangi normalar kiritildi.

Mazkur konstitutsiyaviy qonun bilan saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga binoan, bu galgi saylovda yurtimiz tarixida birinchi marta aralash saylov tizimi sinovdan o'tadi. U Qonunchilik palatasi deputatlarining 50 foizini bir mandatlil saylov okruglaridan majoritar tizim bo'yicha, qolgan 50 foizini esa partiya ro'yxati bo'yicha proporsional tizim orqali saylash imkonini beradi. Ushbu o'zgarish individual vakillik bilan partiya manfaatli o'rtasidagi muvozanatni uyg'unlashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Milliy saylov komissiyalari tizimi davr talabi va demokratik tamoyillar asosida takomillashirildi. Mamlakatimiz tarixida birinchi marta barcha viloyatlar va Toshkent shahrida doimiy asosda faoliyat yuritadigan hududiy saylov komissiyalari tuzildi.

Qayd etish joizki, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qonunchilik palatasi deputatlari saylovlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq hududiy saylov komissiyalari vakolatlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi amalga oshiradi.

Saylovga tayyorgarlikning muhim bosqichi — konstitutsiyaviy qonun talablaridan kelib chiqib, Markaziy saylov komissiyasining barcha normativ-huquqiy hujjatlarini to'la xatolardan o'tkazildi. O'nta yaqin nizom, yo'riqnomalar hamda boshqa hujjatlar yangidan ishlab chiqildi va qabul qilindi, ayrimlari zarur o'zgartirishlar kiritilib, ijroga qaratildi.

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan Konstitutsiya va Saylov kodeksida belgilangan muddatlardan kelib chiqib, 26-iyuldan Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi bo'yicha saylov kampaniyasiga start berilib, kalendariya reja tasdiqlandi.

Bularning barchasi saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishni yuksak demokratik tamoyillar darajasida tashkil etish, fuqarolarning saylov huquqlarini to'liq amalga oshirish, davlat hokimiyati organlarini shakllanishda siyosiy partiyalarning faol ishtirokini ta'minlash uchun keng sharoitlar yaratish imkonini berdi.

YANGI IMKONIYATLAR

Milliy saylov tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarining tobora keng joriy etilayotgani saylov jarayonlarining barcha ishtirokchilari uchun yangi qulayliklar yaratib, o'zining yuksak samaralarini bermoqda.

Bu yilgi saylovda "E-saylov" axborot tizimi ishga tushirilishi shunday muhim yangiliklardan biri bo'ldi. Ushbu zamonaviy tizim yordamida saylov jarayonining ko'plab tartib-taomillari raqamlashtirilib, byurokratik to'siqlari keskin kamaytirildi va shaffofligi oshirildi. Tizim boshqa elektron platformalar bilan integratsiya qilingani saylov jarayonlarining avtomatlashtirishi va saylovga oid ma'lumotlarni real vaqt rejimida olish, almashish imkonini bermoqda.

Beshta siyosiy partiya tomonidan barcha darajadagi deputatlik o'rinalariga 100 foiz nomzodlar ko'rsatildi. Bunda "E-saylov" interaktiv portali ishga tushirilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu tizim orqali siyosiy partiyalar nomzodlarning qonunchilik talablariga mosligi holati bo'yicha saylov komissiyalari bilan tekzor ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

"E-saylov" tizimi saylovga tayyorgarlik ko'rish jarayonida afzalligi va qulayligini to'la namoyon etib ulgurdi. Saylov komissiyalari tomonidan ro'yxatga olingan jami 29 ming 350 nafar deputatlikka nomzodning mobil telefoniga ular tegishli vakillik organi saylovi bo'yicha deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olingani, "E-saylov" tizimi yordamida ishonchli vakillarni ro'yxatdan o'tkazishi mumkinligi va saylovda tashviqoti boshlanishi hamda muddatlari to'g'risida xabarnomalar yuborildi.

Bundan tashqari, saylovda tashviqoti davrida deputatlikka nomzodlarga saylov jarayoni bilan bog'liq o'nta yaqin boshqa SMS xabarnoma yuborildi. Shuningdek, siyosiy partiyalardan kuzatuvchilar, nomzodlarning ishonchli vakillari "E-saylov" tizimi orqali ro'yxatdan o'tkazildi hamda guvohnomalar tizimda avtomatik tarzda shakllantirildi va egalariга yuborildi.

Yangi axborot tizimida fuqarolar uchun ham saylovga oid axborotlarni olishda ko'plab qulayliklar yaratildi. Xususan, mazkur tizim saylovchilar va saylov uchastkalariga oid statistik ma'lumotlarni olish, barcha turdagi saylovlar bo'yicha deputatlikka nomzodlar haqida axborotga ega bo'lish, interaktiv xaritalarda deputatlikka nomzodlar va ularning tarjimai holi bilan tanishish imkonini beradi.

Bu yilgi saylovda Toshkent shahridagi o'nta saylov uchastkasida saylov kuni elektron ovoz berishni tashkil etish va o'tkazishning tajriba-sinov tariqasida joriy etilishi ham muhim yangiliklardir. Elektron ovoz berish tartibi sinab ko'riladigan saylov uchastkalarida saylovchilar ovoz berishning an'anaviy yoki elektron shaklini mustaqil tanlash huquqiga ega.

Saylov kuni saylov jarayonini real vaqt rejimida (onlayn) videotranslyatsiya qilish maqsadida barcha tuman va shaharlar hududida joylashgan muayyan saylov uchastkalarida video-kameralar o'rnatildi.

Bu Markaziy saylov komissiyasining matbuot markazidagi ekrandalarda, saylovda rasmiy veb-saytida hamda Milliy teleradiokompaniyaning "O'zbekiston-24" va boshqa telekanallarida ovoz berish jarayonini onlayn kuzatish imkonini beradi.

BIRINCHI MARTA

Xotin-qizlarning davlat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini, saylov huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridir.

Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan jami 875 nafar nomzod orasida ayollar 391 nafarni yoki 44,7 foizni tashkil etdi. Bu mamlakatimiz milliy saylov tizimi tarixidagi eng yuqori ko'rsatkichdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahri hamda tuman (shaharlar) kengashlariga deputatlik mandatlari uchun siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan jami 28 ming 475 nomzodning 42,5 foizi xotin-qizlardir.

Nomzod ko'rsatishda siyosiy partiyalar inklyuzivlikka ham alohida e'tibor qaratganini



kuzatish mumkin. Jumladan, Qonunchilik palatasi saylovi bo'yicha deputatlikka nomzodlar safida nogironligi bo'lgan 11 nafar va mahalliy kengashlar saylovi bo'yicha deputatlikka nomzodlar orasida 605 nafar shaxs bor. Bunday yuqori darajadagi inklyuzivlik ham birinchi marotaba kuzatilmog'ga.

KUCHLI RAQOBAT

Saylov — har doim g'oyalari, loyihalari, shaxslar o'rtasidagi raqobat. Aralash saylov tizimi joriy etilishi siyosiy partiyalar o'rtasidagi raqobati kuchaytirib, jamiyatimizdagi demokratik muhitga yangi quvvat bag'ishlagani saylovda tashviqoti davomida yaqqol sezildi.

OLIY MAJLIS QONUNCHILIK
PALATASI VA MAHALLIY
KENGASHLAR DEPUTATLARI
SAYLOVIDA OVOZ BERISH JORIY
YILNING 27-OKTABR KUNI SOAT 8:00
DAN 20:00 GACHA O'TKAZILADI.

Saylovda tashviqoti saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni nomzod yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyatdir.

Nomzodlarni ro'yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning eritasidan, ya'ni 22-sentabrdan e'tiboran boshlangan saylovoldi tashviqoti bugun nihoyasiga yetadi. Ertaga — sukunat kuni. Zero, Saylov kodeksiga binoan, saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganida tashviqotga yo'l qo'yilmaydi.

Siyosiy partiyalar va nomzodlarning tashviqot tadbirlari ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya, internet jahon axborot tarmog'i, bosma, ko'rgazmat, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini (plakatlari, varaqlari va boshqa materiallari) qichqirish hamda tarqatish, teledebatlar va saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali amalga oshirildi.

Markaziy saylov komissiyasi qarori bilan deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga saylovda tashviqoti yuritishi uchun davlat eng muhim ustuvor yo'nalishlaridir.

o'mmaviy axborot vositalaridan foydalanishda hajmiga ko'ra, bir xil e'fir vaqtini va nashr maydonini bepul berish yo'li bilan teng sharoit ta'minlandi.

Bularning barchasi saylovning ko'ppartiyaviylik va muqobilik, oshkorlik va transparentlik tamoyillarini asosida, umumiy t'irof etilgan xalqaro demokratik standartlarga mos o'tayotganiga yorqin misollardir.

Saylovoldi jarayonda shu kungacha birorta jiddiy huquqbuzarlik holatlari qayd etilmadi. Partiyalar, deputatlikka nomzodlar o'rtasidagi saylovda tashviqoti qonun doirasida kechdi.

SAYLOVCHILARNING HUQUQIY
SAVODXONLIGINI OSHIRISH MAQSADIDA
MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASINING RASMIY
SAYLOV.UZ VEB-SAYTIGA JAMI 11 MING 758 TA
AXBOROT, SAYLOVGA OID VIDEODARSLAR
BO'LIMIGA 11 TA VIDEODARS, SHUNINGDEK,
"SAYLOV — 2024" RUKNIGA SAYLOVGA DOIR
BARCHA MA'LUMOTLAR JOYLASHTIRILDI.OCHIQLIK VA
OSHKORALIK

Markaziy saylov komissiyasi va barcha darajadagi saylov komissiyalari o'z ishini hamisha ochiqchilik, oshkorlik va shaffoflik tamoyillariga binoan tashkil etib kelmoqda. Buning oddiy misoli Markaziy saylov komissiyasi huzurida o'z hududiy bo'limlariga ega matbuot markazi faoliyatini yo'lga qo'yilganidir.

Markaziy saylov komissiyasining saylovga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq barcha majlislari ijtimoiy tarmoqlar orqali surdotarjima bilan jonli e'fira uzatib borilmog'ga.

Saylovchilarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida Markaziy saylov komissiyasining rasmiy saylov.uz veb-saytiga jami 11 ming 758 ta axborot, saylovga oid videodarslar bo'limiga 11 ta videodars, shuningdek, "Saylov — 2024" rukniga saylovga doir barcha ma'lumotlar joylashtirildi.

Hududiy saylov komissiyalarining rasmiy veb-saytlariga 1207 ta axborot joylashtirildi. Shuningdek, saylov kampaniyasiga hamda saylovchilarni saylovga jalb qilishga doir teleradio va telegram kanallari, bosma va internet nashrlari, boshqa ijtimoiy tarmoqlarda

43 mingdan ziyod axborot materiali e'lon qilindi.

Saylovchilarni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi kuni, siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlar haqida xabarot qilishga qaratilgan hamda saylovda faol ishtirok etishga chaqiruvchi turli o'chamlardagi 716 mingdan ko'proq nusxadagi plakat nashr etilib, aholi gavjum joylarga o'rnatildi. Bundan tashqari, mamlakatimiz bo'yab mingga yaqin bilbordarda besh xil namunadagi chorlov bannerlari joylashtirildi. Shuningdek, Toshkent shahridagi metro bekatlari, metro vagonlari hamda avtobus salonlariga chaqiruvchi aks etirilgan videoroliklar joylandi.

Markaziy saylov komissiyasi matbuot markazida O'zbekiston hududida yashovchi aholi uchun bepul 1200 qisqa raqamli va xorijda istiqomat qiluvchi fuqarolar uchun 55-500-12-00 raqamli tekzor axborot berish markazi (kol-markaz) tashkil etildi.

Kol-markaz orqali fuqarolarga ovoz berish uchastkasini aniqlash va saylovga oid boshqa ko'plab ma'lumotlarni o'zbek, qoraqalpog', rus hamda ingliz tillarida olish imkoniyati yaratilgan.

Fuqarolar, saylov tashkilotchilari-yu jumalardan tushayotgan barcha murojaatlarga Markaziy saylov komissiyasining mas'ul xodimlari, saylov bo'yicha yetakchi ekspertlar va huquqshunos olimlardan iborat navbatchilik guruhi tomonidan o'z vaqtida malakali javoblar berilmog'ga. Murojaatlarning birortasi e'tibordan chetda qolayotgani yo'q.

Markaziy saylov komissiyasi saylovga tayyorgarlik jarayonida nogironligi bo'lgan fuqarolarning alohida ehtiyojlariga hamisha jiddiy e'tibor qaratib keladi. Bu Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonlarida ham amaliy ifodasini topmog'ga.

Nogironligi bo'lgan fuqarolarning saylov huquqlarini ta'minlashda qo'shimcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratishga doir masala MSK majlisida muhokama qilinganida, mamlakatimizdagi o'rta nodavlat notijorat tashkilot — O'zbekiston Nogironlari jamiyati, Ko'zi ojizlar jamiyati, Karlar jamiyati va Nogironlar assotsiatsiyasidan vakillar ishtirok etdi.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi fuqarolar saylov byulletenlarida o'z xohish-irodasini mustaqil ifoda eta olishi uchun har bir saylov uchastkasi saylov byulletenlarini brayl alifbosi asosida to'ldirish uchun trafaretlar bilan ta'minlandi.



2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri kengashlari deputatlari saylovi;

3. Xalq deputatlari tuman va shahar kengashlari deputatlari saylovi.

Bu yilgi saylovda saylovchilarga ovoz berish uchun to'rt turdagi saylov byulletenlari beriladi.

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari sayloviga doir bir mandatlil saylov okrugi bo'yicha saylov byulleteni;

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari sayloviga doir yagona saylov okrugi bo'yicha saylov byulleteni.

Mazkur saylov byulleteniga saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning nomi, ramziy belgisi ularning saylovda ishtirok etishi uchun ijorat berilgan navbatiga muvofiq ketma-ketlikda, ya'ni Tadbirkorlar va ishblamlonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, O'zbekiston Ekologik partiyasi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi kiritildi.

3. Xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahri kengashi deputatlari sayloviga doir saylov byulleteni;

4. Xalq deputatlari tuman, shahar kengashi deputatlari sayloviga doir saylov byulleteni.

Uchastka saylov komissiyasida soat 20:00 da ovoz berish tugagani e'lon qilinadi va saylov byulletenlar bo'yicha ovozlar sanab chiqiladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov yakunlariga ko'ra Markaziy saylov komissiyasining qarori saylovdan keyin 10 kundan kechiktirmay qabul qilinadi, Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-saytida va boshqa manbalarda e'lon qilinadi.

Saylovda bir mandatlil saylov okruglari bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovozi olingan nomzod saylangan deb hisoblanadi.

Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov oknugi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida yetti foiz ovozi olingan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandatga ega bo'ladi.

Mahalliy kuzatuvchilar, saylovchi-fuqarolar, saylovning boshqa ishtirokchilari bevosita o'zlari yoki vakillari orqali saylov komissiyalariga ariza, taklif va shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin.

IJODIY YONDASHUV

Saylovni yuqori saviyada tashkil etishda saylov komissiyalari a'zolarining milliy saylov qonunchiligini va amaliyoti hamda xalqaro saylovga oid standartlar bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Kaskad usulida uch bosqichli o'quv-amaliyot mashg'ulotlari tashkil etilib, saylov komissiyasi a'zolari, trenerlar va operatorlardan 120 mingdan ortig'ining saylov qonunchiligini bo'yicha malakasi oshirildi.

Barcha darajadagi saylov komissiyalari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari sayloviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'z ishini Saylov kodeksi talablariga binoan, qonuniylik, mustaqillik, xolislik, ochiqchilik, oshkorlik hamda adolat tamoyillariga qat'iy amal qilgan holda tashkil etib kelayotir.

Ekspertlar va jurnalistlar joriy yildagi saylov haqida fikr yuritir ekan, jamoatchilik o'rtasida "kreativ", ya'ni "ijodiy" degan so'z ko'p tilga olinayotganiga e'tibor qaratmog'ga. Bu jamiyatimizning barcha bo'g'inlarida ishga ijodiy yondashuv mustahkam qaror topayotganidan dalolatdir. Ushbu so'zning zamirida "Yangi O'zbekiston — ma'rifati jamiyat" konsepsiyasining amaldagi ro'yobi, jamiyatimiz, xalqimiz hayotidagi miqyosi keng, samaralari yuksak o'zgarishlarga, yorqin kelajakka ulkan umid va daxldorlik tuyg'usi mujassam.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Albatta, biz turli siyosiy partiyalarga mansub bo'lishimiz, turli g'oya va qarashlar tarafdori bo'lishimiz mumkin. Demokratiya degani ham aslida shu. Ammo mohiyat e'tibori bilan qaraganda, barchamizning, butun O'zbekiston xalqining maqsadi bir. Bizning barchamizni Vatan, el-yurt manfaatli birlashtiradi".

27-oktabr, yakshanba kuni bo'lib o'tadigan saylovda ham xalqimiz konstitutsiyaviy huquqidan foydalanib, vatanimizning porloq istiqbolini uchun ovoz beradi. Bu ulkan imkoniyat "Mening tanlovim — obod Vatanim!" ezgu g'oyasining amaldagi yorqin ifodasi bo'ladi. Men barcha saylovchilarni saylovda faol ovoz berishga chaqiram! Zero, el-yurtimiz taqdiri uchun har birimiz mas'ulimiz!



Saylovlarda kuzatuvchilarning ishtiroki va o'rni nihoyatda muhim. Xususan, Saylov kodeksining 8-, 33-moddasida, qolaversa, Markaziy saylov komissiyasining qarori asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi saylovlarida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardan qatnashadigan kuzatuvchilar to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan kuzatuvchilar to'g'risida"gi nizomlarda kuzatuvchilarning saylov jarayonidagi ishtiroki masalasi atroflicha tartibga solingan.

KUZATUVCHILIK INSTITUTI

saylovlar oshkoraligini ta'minlash vositasi

Saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishga doir barcha tadbir, shuningdek, har bir saylov uchastkasida saylov kuni ovoz berish va ovozlarni sanab chiqish jarayonida kuzatuvchi qatnashish huquqiga ega. Kuzatuvning maqsadi saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishga doir barcha tadbir, jumladan, saylov kuni ovoz berish va ovozlarni sanab chiqish jarayonida saylov qonunchiligiga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdan iborat.

Shundan kelib chiqib, kuzatuv instituti saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda amaldagi milliy qonunchilik va xalqaro standartlarga muvofiq saylov jarayonining ochiqligi va shaffoqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

2002-yilda Venetsiya komissiyasi tomonidan qabul qilingan "Saylovlarni tashkil etish bo'yicha tavsiya"da kuzatuvchilar uch toifaga bo'linadi:

birinchi, siyosiy partiyalar, nomzodlar tarafdori sifatida ishtirok etadigan kuzatuvchilar;

ikkinchi, siyosiy partiyalar, nomzodlar tarafdori sifatida ishtirok etmaydigan mustaqil kuzatuvchilar;

uchinchi, xalqaro kuzatuvchilar maqomidagi shaxslar.

Yoki bo'lmasa, xorijiy (xalqaro) kuzatuvchilar saylovlarni o'rganish muddatiga ko'ra, uzoq muddatli va qisqa muddatli kuzatuvchilarga tasniflanadi. Uzoq muddatli kuzatuvchilar saylov kuni dan 6-8 hafta oldin, qisqa muddatli kuzatuvchilar esa saylovdan 3-5 kun oldin hozir bo'ladi. Uzoq muddatli kuzatuvchilarni YXHTning DIHB, qisqa muddatli kuzatuvchilarni esa davlatlar, xalqaro tashkilotlar yuboradi.

Bugun O'zbekiston xalqaro munsabatlarining to'la huquqli subyekti sifatida xalqaro huquqning umumiy tirof etilgan prinsipi va normalarini qamrab olgan inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq hujjatga qo'shilgan. BMT, YXHT, Yevropa kengashi, Parlamentlararo ittifoq va boshqa shu kabi yetakchi xalqaro tashkilotlar hujjatida aks ettirilgan davlatning majburiyatlari va saylov standartlari implementatsiyasi asosida O'zbekistonda milliy saylov tizimi shakllantirildi. Saylovni o'tkazish va xalqaro darajada kuzatish masalalari huquqiy tartibga solindi.

Mamlakatimizda o'tayotgan saylovlarda xalqaro kuzatuvchilarning ishtiroki ko'lami kengayib bormoqda. Xususan, 2019-yilgi saylov kampaniyasi davomida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining taklifiga asosan, saylovni kuzatishda 9 ta xalqaro tashkilot va 41 ta xorijiy davlat vakillaridan iborat jami 825 chet ellik kuzatuvchi ishtirok etgan.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan saylovlarda mahalliy kuzatuvchilar ishtiroki ham kengayib bormoqda. 2019-yilgacha saylovlarda faqat siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan kuzatuvchilar ishtirok etish huquqiga ega edi. 2019-yilda qabul qilingan Saylov kodeksida ilk bor fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga kuzatuvchilar ko'rsatish huquqi berildi.

Xalqaro kuzatuvchilarni akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi qanday?

Saylovda xorijiy (xalqaro) kuzatuvchi sifatida ishtirok etish uchun taklif etilgan, shuningdek, bunday istakni izhor etgan xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar o'z kuzatuvchilarning ro'yxati, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari nusxasi, elektron fotosurati, anketa va deklaratsiyani to'ldirilgan holda Tashqi ishlar vazirligiga taqdim qiladi. **E'tibor qaratish lozim:** taqdim etilgan ma'lumotlarning butligi (to'liqligi) va to'g'riligiga taqdim etuvchining o'zi mas'uldir.

Shu bilan birga, akkreditatsiya uchun taqdim etilgan hujjatlar talablariga javob bermasa, hujjatlar belgilangan muddatdan kech taqdim etilsa, xorijiy kuzatuvchi yoki uning nomzodini ko'rsatgan tashkilot faoliyati milliy qonunchilikka zid bo'lsa yoki O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va milliy manfaatlariga xavf solsa, qonunchiligimizga muvofiq akkreditatsiya qilish rad etilishiga asos bo'ladi.

Saylov qonunchiligiga kiritilgan yangi o'zgartirishlarga ko'ra, xorijiy (xalqaro)



Sherzod ZULFIQOROV, Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori

kuzatuvchilar "E-saylov" axborot tizimi orqali akkreditatsiyadan o'tkazilishi mumkin. Xorijlik kuzatuvchilarga mandatlar elektron shaklda "E-saylov" axborot tizimi orqali berilganda mandat MSK raisi tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

Bu bo'yicha zarur tartib-qoidalarni Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 19-iyuldagi qarori bilan tasdiqlangan "**E-saylov**" axborot tizimi reglamentini ta'minlashga solingan.

Mahalliy kuzatuvchilar hujjati qanday rasmiylashtiriladi?

Siyosiy partiya a'zosi yoki tarafdori yoxud O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiya xarixoh 18 yoshga to'lgan har qanday fuqarosi siyosiy partiyadan kuzatuvchi bo'lishi mumkin. Shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan O'zbekiston fuqarosi bo'lgan fuqarolar yig'ini raisi, o'rinsosari, maslahatchisi, shuningdek, fuqarolar yig'ini organlarining boshqa mansabdor shaxslari kuzatuvchi bo'la oladi.

Yangi o'zgartirishga ko'ra, kuzatuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga, viloyat, Toshkent shahri hududiy saylov komissiyasiga murojaat etish hamda hududiy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olish jarayoni "E-saylov" axborot tizimi orqali amalga oshirilishi mumkin. Kuzatuvchilarga mandatlar elektron shaklda "E-saylov"

2019-yilgi saylov kampaniyasi davomida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining taklifiga asosan saylovni kuzatishda 9 ta xalqaro tashkilot va 41 ta xorijiy davlat vakillaridan iborat jami 825 chet ellik kuzatuvchi ishtirok etgan.

axborot tizimi orqali berilganda mandat hududiy saylov komissiyasi raisi tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

Hududiy saylov komissiyasi siyosiy partiya tashkiloti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi arizasini olgandan keyin besh kun ichida qaror qabul qiladi va kuzatuvchi uchun tegishincha shaklda mandat beradi. Mandatda siyosiy partiyani boshqa siyosiy partiyadan va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan farqlash uchun alohida belgilar bilan (mandat rangi yoki boshqa) aks ettirilishi mumkin.

Quyidagi hollarda kuzatuvchiga mandat berish rad etilishi mumkin:

- kuzatuvchilikka nomzod 18 yoshga to'lmagan bo'lsa yoki O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa;
- saylovga o'n kundan kam muddat qolganida murojaat etilsa;

— tegishli saylov okrugi bo'yicha siyosiy partiyadan nomzod ro'yxatga olinmagan bo'lsa (siyosiy partiya kuzatuvchilari uchun);

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsi bo'lmasa (fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi kuzatuvchilari uchun);
- hujjatlar nizom talabi bo'yicha to'liq taqdim etilmasa.

Mabodo tegishli saylov komissiyasi tomonidan takroriy saylov o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinsa, kuzatuvchilar mandatining amal qilishi tegishli muddatga uzaytiriladi.

Kuzatuvchilar vakolati doirasida qanday huquqlarga ega?

Saylov jarayonlarida kuzatuvchilar muayyan huquq va majburiyatlarga ega. Xatti-harakatlarida man etuvchi (cheklovchi) talablarga rioya etishi lozim. Huquq bor joyda majburiyat bo'lgani singari saylovchilar Saylov kodeksi, tegishli nizomda belgilab qo'yilgan huquq va majburiyatlarini, belgilangan talablarni bajarishi zarur.

Kuzatuvchilar huquqlari quyidagilar:

— saylov komissiyalari majlisida hozir bo'lish;

- nomzodlar ko'rsatishga bag'ishlangan yig'ilishlarda, nomzodlar va siyosiy partiyalarning saylovchilar bilan uchrashuvida ishtirok etish;

— saylov uchastkasida hozir bo'lish, tayyorgarlik ishlari borishi, yashirin ovoz berish kabinalarini yoki xonalarni joylashtirish va saylov qutilari muhranlash, fuqarolarning ro'yxatga olinishi, ularga saylov byulleteni berilishini kuzatish;

— saylov kuni ovoz berish jarayonini kuzatish, muddatidan oldin ovoz berish jarayoni o'tkaziladigan vaqt va joy haqida xabardor bo'lish hamda uni kuzatish;

— saylovchining turgan joyida uning ruxsati bilan ovoz berish jarayonini kuzatish;

- ovozlarni sanab chiqayotganda va saylov komissiyasining bayonnomasi tuzilayotganda hozir bo'lish;

— saylov natijalari to'g'risidagi hujjatlar tegishli saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxalarini so'rash va olish;

— saylov jarayoni va ovoz berish yashirinligini buzmasdan foto, video, audio yozuvlarni amalga oshirish (qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylari, harbiy qismlar, davolash muassasalarini bundan mustasno);

davlat organlari, mansabdor shaxslar, saylov jarayoni ishtirokchilariga nisbatan biror-bir tarzda yon bosmaslik;

— barcha darajadagi saylov komissiyalari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga hamda boshqa tashkilotlarga kirganida MSK tomonidan berilgan mandatni shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan birga ko'rsatish;

— xulosalarini o'tkazilgan kuzatuv va haqiqiy materiallar bilan asoslantirish.

Man etuvchi talablar esa quyidagilar:

— saylovchi saylov byulleteniga o'z belgisini qo'yayotgan paytda yashirin ovoz berish kabinasida yoki xonasida bo'lish;

— fuqarolarga ta'sir o'tkazish, biror-bir tashviqot materiali yoki adabiyotini tarqatish;

— saylovchilardan ular qanday ovoz berganini surishtirish yoki saylovchilarga saylov byulleteniga belgi qo'yishda biror-bir tarzda yordam ko'rsatish;

— saylov komissiyasi faoliyatiga, jumladan, saylov qutilarini muhrash, ochish, ovozlarni sanab chiqish jarayoniga aralashish;

- biror-bir partiya yoki nomzodga tegishli ramziy tushni belgilarni taqib yoki olib yurish;

— saylov kuni va ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin jamoatchilik fikri so'rovi natijalarini, saylov natijalari prognozlarini, o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni e'lon qilish.

Xorijiy (xalqaro) kuzatuvchilar faoliyati kafolati

Xorijiy (xalqaro) kuzatuvchilar O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan vaqtida davlatimiz himoyasida bo'ladi hamda ularning qonun hujjatlarida belgilangan huquq va erkinliklari ta'minlanadi. Qolaversa, Tashqi ishlar vazirligi, MSK, hududiy, tuman, shahar, okrug, uchastka saylov komissiyalari o'z vakolat doirasida xorijiy (xalqaro) kuzatuvchilar faoliyatiga ko'maklashadi.

Saylov komissiyalari xorijiy (xalqaro) kuzatuvchini mandat va shaxsini tasdiqlovchi hujjatiga asosan ro'yxatga olgandan keyin unga o'z vakolatini to'laqonli hamda to'sqinlik amalga oshirishi uchun sharoit



yaratib beradi. Xorijiy (xalqaro) kuzatuvchilar faoliyatini mustaqil amalga oshiradi.

Qolaversa, xorijiy (xalqaro) kuzatuvchilar mazkur nizomda belgilangan vakolatlar doirasidan chetga chiquvchi faoliyatni amalga oshirishga, shuningdek, saylovga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish va saylov kampaniyasi borishini kuzatish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullanishda maqomidan foydalanishga haqli emas. Xorijiy (xalqaro) kuzatuvchi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar talablarini, xalqaro huquqning umumiy tirof etilgan qoidalari va normalarini buza, MSK xorijiy (xalqaro) kuzatuvchi vakolatlarini muddatidan ilgari tugatishi mumkin.

Milliy qonunchiligimizda kuzatuvchilar faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlik asoslari belgilangan. Bu ham ularning samarali faoliyati uchun muhim huquqiy kafolatdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 51-moddasida kuzatuvchining huquqlarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Kuzatuvchilarning saylovlardagi ishtiroki mazkur siyosiy jarayonning adolati, qonuniy, ochiq va shaffof o'tishining muhim garovidir. Bu borada xalqaro huquqning umumiy tirof etilgan barcha qoidalari, xalqaro saylov standartlari asosida ishlab chiqilgan milliy qonunchiligimiz kuzatuvchilik institutini kompleks tartibga solib, kuzatuvchilarning saylov jarayonidagi ishtiroki hamda huquq va manfaatlarining ishonchli huquqiy kafolati sanaladi. O'z navbatida, kuzatuvchilarning o'z huquqlaridan samarali foydalanib, belgilangan majburiyatlarga rioya etishi saylov jarayonining demokratik prinsiplar asosida, ochiq va oshkora o'tishiga munosib hissa qo'shadi.

MILLIY SAYLOV QONUNCHILIGI – DEMOKRATIK DAVLATCHILIGIMIZNING YORQIN NAMUNASI

Saylov qonunchiligiga muvofiq, saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganda tashviqotga yo'l qo'yilmaydi. Demak, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga saylovlar 27-oktabr kuni bo'lib o'tishini hisobga olsak, ertaga mamlakatimizda sukunat kuni.



Feruz HAKIMOV, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-bosqich magistranti

To'g'ri, saylov kampaniyasiga start berilganidan boshlab OAV va internetdagi ijtimoiy tarmoqlar orqali bu yilgi saylovlarning yangi — aralash saylov tizimi asosida o'tishi, bu tizimning afzalliklari, ayniqsa, keyingi paytlarda siyosiy partiyalarning Saylovoldi dasturidan o'rin olgan dolzarb ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy masalalarga doir ilgari surilayotgan tashabbuslar keng yoritildi. Lekin nazarimda, mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirishdagi ahamiyatidan kelib chiqib, qolaversa, ilk marotaba yangi tahrirdagi

qolgan 75 nafari proporsional saylov tizimi asosida yagona saylov okrugida siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar ro'yxati bo'yicha saylanadi.

Uchinchidan, milliy saylov qonunchiligimiz ilg'or demokratik standartlarga mos ravishda tubdan takomillashtirildi. Jumladan, saylov organlarining Markaziy saylov komissiyasi boshchiligidagi yangi tizimi joriy etildi. Siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlarni ko'rsatishda ayollar ulushi kamida 40 foiz bo'lishi belgilandi.

To'rtinchidan, deputatlikka nomzod saylanishi uchun saylovchilarning nisbiy ko'pchilik ovozi olinishi belgilandi. Unga ko'ra, nomzod tegishli saylov okrugida boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovoz to'plagan taqdirda deputat bo'lib saylanishi mumkin va shu orqali takroriy ovoz berishni tashkil etish talab etilmaydi.

Avvalgi saylovlardagi tartibga ko'ra esa ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar yarmidan ko'pi (50+1), ya'ni mutlaq ko'pchilik ovozi olingan nomzod saylangan deb hisoblangan. Mazkur qoida bekor bo'ldi va vakillik organlari uchun takroriy ovoz berish instituti tugatildi. Bu bilan takroriy saylov o'tkazish uchun sarflanadigan mehnat resurslarini kamaytirish va moliyaviy xarajatlarni tejash imkoniyati yaratildi.

Beshinchidan, endi Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov okrugi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida 7 foiz ovozi olingan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandatga ega bo'ladi. 7 foiz ovoz to'play olmagun taqdirida ushbu siyosiy partiya Qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rinlari taqsimlanmaydi.

Oltinchidan, saylov yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlangan kuchli parlamentarizm va joylarda vakillik organlarining vakolatlari sezilarli darajada kuchaytirilgan sharoitda bo'lib o'tadi. Xususan, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolati amaldagi 5 tadan 12 taga, Senatda esa 12 tadan 18 taga ko'paytirildi. Parlamentning ijtiro etuvchi, sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat funksiyalari kengaytirildi.

Hokimlar endi kengashga rais bo'lolmaydi

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, Saylov kodeksi va saylovga doir boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarga muvofiq, xalq deputatlari mahalliy kengashlari bilan

Ikki kundan keyin bo'lib o'tadigan saylovda har birimizning mustaqil tanlovimiz, ovozimiz juda muhim. Zero, saylov — mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotidagi eng muhim siyosiy jarayon. Unda aholining faol ishtiroki mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omildir.

Konstitutsiyamizda belgilab berilgan mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy muhitda, parlament va mahalliy kengashlarning davlat hokimiyati tizimidagi o'rni va vakolatlari sezilarli darajada kuchaytirilgan sharoitda o'tayotgani hisobiga saylov haqida har qancha gapirsak arziydi.

Haqiqatan bu yilgi saylovlarda oldingilardan tubdan farq qiladi. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: bular nimalarda ko'rinadi? Birinchidan, saylovlar yangi konstitutsiyaviy sharoitda o'tkaziladi. O'tgan yangi referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 120-moddasida xalq deputatlari kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi, shuningdek, viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida xalq deputatlari kengashi raisi lavozimini egallashi mumkin emasligiga oid yangi norma mustahkamlandi. Mahalliy kengashlar bilan bog'liq o'zgarishlar ahamiyatidan kelib chiqib, bunga atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Ikkinchidan, Qonunchilik palatasidagi 150 deputatlik o'rnining teng yarmi — 75 deputat majoritar saylov tizimiga muvofiq hududiy bir mandatli saylov okruglaridan,

bog'liq qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining qarorlarini bekor qilish imkoniyati yaratildi. Bu jarayonda qabul qilinadigan qarorlar qonunchilikka muvofiq deb topilmasa, yuqori turuvchi organlar tomonidan qayta ko'rib chiqiladi.

Hokim va kengashlar vakolatlari ajratildi. Endi hokimlar mahalliy kengashlarga raislik qilish huquqiga ega emas. Shu yildan boshlab viloyat, tuman va shahar hokimlari kengashi raisi lavozimini egallay olmaydi. Hokimlarga taalluqli 33 ta vakolat mahalliy kengashlarga o'tkazildi. Natijada mahalliy kengashlar mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikka ko'ra, mahalliy kengashlarga raislik qiladigan shaxslar kengash deputatlari orasidan saylanadi va surunkasiga ikki muddatdan ortiq rais bo'lish vakolatiga ega emas.

Qisqasi, ikki kundan keyin bo'lib o'tadigan saylovda har birimizning mustaqil tanlovimiz, ovozimiz juda muhim. Zero, saylov — mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotidagi eng muhim siyosiy jarayon. Unda aholining faol ishtiroki mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omildir.

O'ZBEKISTONDA MILLIY MADANIYATNI ASRAB-AVAYLASH VA RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR YUKSAK E'TIROFGA LOYIQ

Nigoh

O'zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo'ydi. Mamlakatda qonun, demokratiya va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan jamiyat barpo etish yo'lida keng qamrovli islohotlar dasturi amalga oshirila boshlandi. Ushbu ulug'vor g'oya qonun ustuvorligini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati shaffofligini hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlovchi muhit yaratishga qaratilgan bilan alohida ahamiyatga ega.

asl holda yetkazish maqsadida O'zbek milliy maqom san'ati markazi, Respublika baxshichilik san'ati markazi, Baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasi, O'zbek milliy musiqa san'ati instituti, Respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazi, shuningdek, hududlarda namunaviy maqom va baxshichilik ansambllari tashkil etilgan e'tirofga loyiq.

Sohaga zamonaviy kadrlarni yetkazib berish maqsadida qator yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etilgan, bolalar

subhatlashib, ko'plab taassurot olaman. Bir jihatni aytib o'tsam. O'zbekiston qadimiy tarixi va boy madaniyatini o'zida ifoda etgan baxshichilik san'atiga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi va e'tibori bilan ushbu noyob san'at turi qayta tiklandi. Hatto baxshichilik san'ati UNESCOning Nomoddiy madaniy merosni asrash hukumatlararo qo'mitasi tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritilgan

Turkiy hamkorlik tarixi, madaniyati, tili, urf-odatlari va qadriyatlarini mushtarak bo'lgan qardosh davlatlarni birlashtirgan noyob modeldir. Tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash va targ'ib qilish mazkur hamkorlikning muhim maqsadlaridan. Shu ma'noda, O'zbekistonning xalqaro madaniy faoliyati, erishayotgan yutuq va muvaffaqiyatlari butun turkiy dunyoning nufuzini oshirishga katta hissa bo'lib qo'shilmog'da.

musiqa va san'at maktablari faoliyati takomillashtirilayotgani xalqaro miqyosdagi tanlovlarda O'zbekiston yoshlari erishayotgan yutuqlar misolida samarasini yaqqol ko'rsatmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2016-2024-yillarda O'zbekistonning 11 ta nomoddiy madaniy meros obyektini UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritildi. Bu juda katta sa'y-harakatlar natijasi, albatta.

Har gal O'zbekistonga kelganimda mana shunday islohotlar samarasini ko'rib, chin dildan quvonaman. Soha vakillari, oddiy odamlar bilan dildan

ulkan muvaffaqiyatdir. Maqom san'ati, Navro'z, palov madaniyati va an'analari, atlas va adras to'qish, Xorazm raqsi — lazgi, miniatyura san'ati ham ana shu ro'yxatdan joy olgan.

Mamlakatda bu kabi bebaho san'at turlarini asrab-avaylash va keng targ'ib etish maqsadida nufuzli tadbirlar, jumladan, Xalqaro maqom san'ati anjumani, Baxshichilik san'ati hamda Hunarmandchilik festivali, "Lazgi" xalqaro raqs festivali, "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, Toshkent xalqaro kinofestivali singari yirik madaniy tadbirlarni o'tkazish an'anaga aylangan e'tiborga molik.



Shunday san'at bayramlarida ishtirok etish yuzasidan bildirilgan takliflarni doim katta mamnuniyat bilan qabul qilaman. Joriy yilda Jizzax viloyatining maftunkor Zomin tumanida bo'lib o'tgan Xalqaro maqom san'ati anjumani, Samarqandning betakror Registon maydonida tashkil etilgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida qatnashib, katta taassurot oldim. O'zbekiston rahbarining keng qamrovli va boy mazmunga ega nutqini eshitib, ko'plab ma'lumotga ega bo'ldim. Shavkat Mirziyoyevning har gal nufuzli tadbirlarga tashrif buyurgan mehmonlar bilan alohida ko'rinish, suhbatlashishi samimiyatning yorqin ko'rinishi deb bilaman.

Eng muhimi, O'zbekiston bunday o'ziga xos san'at bayramlari orqali nafaqat madaniyati, an'ana va qadriyatlarini dunyo hamjamiyatiga namoyish etmoqda, balki jahon ahlini tinchlik-totuvlikka, qardoshlik va ahillikka chorlamog'da. Bugungi murakkab davrda ushbu sa'y-harakatlar juda muhim va e'tirofga loyiq.

Bu yurt, chindan ham, tabarruk. Har bir go'shasida buyuk tarix bor. Xivanning Ichan qal'asi qadimiy shahar me'morchiligining ajoyib namunasi, Buxoroning tarixiy markazi esa o'zining go'zal saqlangan masjidi va madrasalari orqali Islom sivilizatsiyasining ulug'vorligini aks ettiradi. Amir Temur tug'ilib o'sgan Shahrisabzning ko'ha markazi muhtasham obidalarini timsolida buyuk davlat arbobi barpo etgan saltanat salobidan so'zlaydi go'yo. "Madaniyatlar chorrahasi",

"Sharq gavhari" degan ta'riflar bilan tilga olinadigan Samarqandning Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi kabi diqqatga sazovor joylar Buyuk ipak yo'li ruhini aks ettiradi. Bundan tashqari, O'zbekistonning go'zal tabiati, biologik xilma-xilligi bu zamin noyob ekologik landshaftga ega ekanini ham namoyon qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan va faol qo'llab-quvvatlangan "O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida" loyihasi yana bir ibratli tashabbusdir. Ushbu loyiha O'zbekiston zaminida yaratilgan, hozir mamlakatda va boshqa qit'alarda muzeylar hamda shaxsiy kolleksiyalarda saqlanayotgan durdonalar — arxeologik artefaktlar, noyob miniatyuralar aks ettirilgan nodir qo'lyozmalar, amaliy san'atning turli namunalarini kataloglashtirish va tadqiq qilish g'oyasiga asoslangan.

Bu orqali O'zbekiston boy madaniy merosini qayta tiklash va ulug'lash bilan birga, o'zining tarixiy qimmatliklarini jahon miqyosida yanada keng targ'ib qilishga erishayotgani quvonarli.

O'zbekiston Prezidentining mintaqada va uning tashqarisida tinchlik, barqarorlik va farovonlikni saqlashga qaratilgan oqilona tashqi siyosati bugun yuksak samaralar bermog'da. Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi do'stona muhit yuzaga keldi. Qardoshlar bilan aloqalar barcha yo'nalishda mustahkamlanib bormog'da. Boshqa mamlakatlar bilan ikki tomonlama samarali va konstruktiv

hamkorlik, ayniqsa, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar kuchayib borayotgani ham diqqatga sazovor. Bu har qancha olqishga arziydi.

O'zbekiston 2019-yilda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo bo'ldi. Turkiy birlikni mustahkamlagan ushbu muhim voqea turkiy hamkorlik tarixida yangi sahifa ochdi va bu hamkorlik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bugun O'zbekiston turkiy hamkorlikning faol a'zosi va harakatlantiruvchi kuchlaridan.

Turkiy hamkorlik tarixi, madaniyati, tili, urf-odatlari va qadriyatlarini mushtarak bo'lgan qardosh davlatlarni birlashtirgan noyob modeldir. Tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash va targ'ib qilish mazkur hamkorlikning muhim maqsadlaridan. Shu ma'noda, O'zbekistonning xalqaro madaniy faoliyati, erishayotgan yutuq va muvaffaqiyatlari butun turkiy dunyoning nufuzini oshirishga katta hissa bo'lib qo'shilmog'da.

Turkiy hamkorlikning barcha yo'nalishidagi o'zaro aloqalar turkiy dunyoda muvaffaqiyatli integratsiya jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Turkiy Parlament Assambleyasi (TURKPA) bu borada parlamentlarning hamkorlik platformasidir. Shubhasiz, O'zbekistonning TURKPAga to'laqonli a'zo bo'lishi turkiy dunyoda parlamentarizm va parlament diplomatiyasini yanada mustahkamlash, turkiy davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish uchun yangi ufqlar ochishi mumkin.

"O'zbekistonda xalqaro madaniy meros haftaligi" doirasida tashkil etilgan "Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasidagi islohotlar" mavzusidagi xalqaro forumda ishtirok etib, ko'p ma'lumot oldim. Anjumanda fikr-mulohazalarimni bildirdim. Forum juda yuksak saviyada tashkil etildi. O'ylaymanki, anjumani doirasida ilgari surilgan takliflar mazkur yo'nalishdagi sa'y-harakatlarga yanada sur'at bag'ishlaydi.

Madaniy merosni asrab-avaylash xalqning o'ziga xosligi va tarixini saqlab qolish uchun juda muhim. U o'timish va bugun o'rtasida ko'priklarni qurish va tiklash. Kelajak avlodlarga o'z ildizlari bilan bog'lanish, qadriyatlar va an'analarni tushunish imkonini beradi. Bu buyuklarni asrab-avaylash orqali nafaqat ajdodlarga hurmat namoyon qilindi, balki tobora globallashib borayotgan dunyoda xilma-xillik va madaniy muloqot qo'llab-quvvatlanadi.

Qardosh O'zbekiston xalqiga esa amalga oshirayotgan ezgu sa'y-harakatlarda doimo muvaffaqiyatli yor bo'lishini tilayman.

BAHS-MUNOZARALARGA BOY MULOQOT MAYDONI

Haftalik

Xalqaro hamkorlik tashabbuslari haftaligi doirasida bo'lib o'tgan anjumandan biri erkin fuqarolik jamiyati va nodavlat notijorat tashkilotlarni rivojlantirish mavzusiga bag'ishlandi. Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi tomonidan tashkil etilgan anjumanda xorijiy va mahalliy ekspertlar, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ilmiy doiralarda vakillari, siyosiy partiyalar faollari ishtirok etdi.

Anjumanda O'zbekistonning demokratik taraqqiyot yo'lidagi islohotlari, ayniqsa, fuqarolik jamiyati sohasidagi tub o'zgarishlar, mamlakatimizning ochiqchilik va shaffoflik borasidagi yutuqlari jahon hamjamiyati e'tiboriga havola etildi.

Yurtimizda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlashda, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyati ortib bormog'da. Fuqarolik jamiyati tashkilotlari jamoatchilikni birlashtirish va faollashtirish, fuqarolarni ijtimoiy muammolarni hal qilishga jalb etish orqali ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga katta hissa qo'shmoqda.

Keyingi yillarda fuqarolik jamiyati va nodavlat tashkilotlarning davlat organlari bilan hamkorligi sezilarli darajada kuchaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy masalalarda ijtimoiy sheriklik tamoyilining joriy etilishi ko'plab muammolarni samarali hal qilish imkonini bermog'da.

Anjumanda yurtimizda shu yil 27-oktabr kuni bo'lib o'tadigan parlament va mahalliy kengashlar sayloviga alohida e'tibor qaratildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovning ilk bor aralash tizim asosida o'tkazilishi va parlamentga nomzodlar orasida ayollar ulushining 40 foizgacha oshirilishi demokratik islohotlarning muhim



hujjatda belgilangan xalqaro standartlarga mos keladigan ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini yaratish, adolati va zamonaviy davlat boshqaruvinu shakllantirish kabi maqsadlarni yuksak baholadi. Strategiyani amalga oshirish O'zbekistonni 2030-yilga kelib, dunyoning eng tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlari qatoriga kiritishi ta'kidlandi.

Konferensiya yakunida ishtirokchilar O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish bo'yicha qator muhim taklif va tavsiyalarni ilgari surdi.

Haftalikning oziq-ovqat xavfsizligi, zamonaviy agrotexnologiyalar, suv resurslarini tejash, "yashil" taraqqiyot, xavfsiz turizm masalalariga bag'ishlangan yig'ilishlari ham qizg'in bahs-munozara va qiziqarli fikr-mulohazalarga boy bo'ldi.

Bugun dunyo miqyosida ro'y berayotgan iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri hamda aholi soni oshib borishi nafaqat rivojlanayotgan,



balki rivojlangan davlatlarda ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdek dolzarb masalani kun tartibiga qo'yog'da. Bu boradagi asosiy manba esa qishloq xo'jaligidir. Shu bois, agrar sohani rivojlantirish, cho'llanish, qurg'ochilik, degradatsiya kabi xavf-xatarlarning oldini olish insoniyatni yangidan yangi innovatsiyalar ustida bosh qotirishga undamog'da.

Agrar soha iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan O'zbekiston uchun ham bu masala muhim. Shu bois, keyingi yillarda mazkur yo'nalishlarda katta o'zgarishlar yuz bermog'da. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilindi. Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarni keng joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qayta ishlash va eksport infratuzilmasini rivojlantirish, sohada agroklastarlar va kooperatsiyalarni tashkil etish hamda mahsulot yetishtiruvchilarni qo'llab-

quvvatlash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmog'da.

Sohada ish yuritishning zamonaviy uslub va ilg'or shakllari, jumladan, agroklastarlar, qishloq xo'jaligi birlashmalarini tashkil etish hamda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash samarasi o'laroq, yuqori daromadli va eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga erishilmog'da. Shuningdek, yerni qayta foydalanishga kiritish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy qilishni rag'batlantirish asosida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, sohani raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tizimli choralar ko'rilmog'da.

2024-yil 1-oktabr holatiga suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan maydonlar 1,6 million gektar (37 foiz)ga yetkazildi. Bugungi kunda bunday texnologiyalarning uskuna va butlovchi qismlarini mahalliy sharoitda ishlab chiqaruvchi korxonalar soni 60 dan oshdi.

Suv yo'qotishlarini kamaytirish maqsadida 2030-yilga qadar beton qoplamali magistrallar va xo'jaliklararo kanallar ulushini 20,5 ming kilometrga yetkazish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, klasterlar, fermerlar, mahalliy hokimliklar tomonidan ichki sug'orish tarmoqlarini betonlashtirishga katta e'tibor qaratilyapti.

Elektr energiyasi xarajatlarini tejash ham ustuvor yo'nalishlardan biri. Shu maqsadda jismonan va ma'nan eskirgan nasos stansiyalarini bosqichma-bosqich modernizatsiyalash va almashirish, ulardan foydalanish va boshqarishni avtomatlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, respublikamiz bo'yicha 527 ta nasos stansiyasi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinadi va boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi joriy etiladi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish va chang-qum bo'ronlariga qarshi kurashish maqsadida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 646 million tup daraxt va buta ekildi. Respublikamizda 14 ta yangi muhofaza etiladigan tabiiy hudud tashkil etilib, umumiy maydoni 6,3 million gektargacha kengaytirildi yoki mamlakatimiz hududidagi ulushi 4,6 foizdan 14,08 foizga yetkazildi. Shuningdek, yurtimizda o'rmon bilan qoplangan maydonlar ham kengaytmog'da. Chiqindilar bilan ishlash tizimi takomillashtyapti.

Turizm sohasi ham yildan yilga rivojlanmog'da. Xorijiy sayyohlar soni 2023-yilda 6,6 millionga yetdi va 2,12 milliard dollar miqdorida turizm xizmatlari eksporti amalga oshirildi. Ichki turizm oqimi ham ko'payib bormog'da. Xorijlik ekspertlar bu sohadagi islohotlarga baho berar ekan, O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha sharoit va imkoniyatlar yetarli ekan, ayniqsa, mamlakatimiz zimini Buyuk ipak yo'li bo'yida joylashgani sohaning yanada ravnaq topishida muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidladi.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Maxtumulni Firog'iy tavalludining 300 yilligi

Maxtumulni — DIL KOTIBI INSONNING..

yoxud Bertelsni qiziqtirgan mumtoz misralar ta'rifi

Bola shuurimizga singib ketgan shunday qo'shiqlar borki, ulg'aygach ham ularni tinglaganda tomirimizda oqayotgan qon yanglig' ko'hna ohanglar nafasini, o'zligimizdan darak beradigan mangu sog'inchni his qilamiz. Har gal radiodan "Mastona yurguncha g'ayri yurtlarda, unib-o'sgan o'z yurtingdan ayrilma", deb boshlanadigan qo'shiqni biz jamalaksoch qizchalar ham yuragimiz uvshib tinglaganimizni, keyin negadir yig'lagimiz kelganini, birozdan so'ng esa qalbmiz yorishib, kayvoni momolarimizning qalampirunchiq isi kelib turgan issiq bag'riga singib erkalanganimizni ko'p bor xotirlaymiz.

Zero, Maxtumulni dunyo adabiyoti tarixiga ulug' hissa qo'shgan biror ijodkordan kam shoir emas. Shuning uchun uning shon-shuhrati, martaba-mavqei gohida she'riy shaklda xayolga keladi:

Maxtumulni — Navoiysi turkmanning, Fuzuliyisi, ham Jomiyisi turkmanning.


Maxtumulni — Shekspiri turkmanning, Gomer, Gyote — so'zda piri turkmanning.

Maxtumulni — Tolstoyi turkmanning, Misli Pomir — baland bo'yi turkmanning,

degan tarzda.

— Maxtumulni she'riyati barcha turkiy millatlar, jumladan, o'zbeklarning ham ma'naviy mulkiga aylangan. She'rlari bir necha marta o'zbek tilida nashr etilgan. Nufuzli tadbirlar va marosimlarimizda el-yurt mehri, ota-ona qadri, umuminsoniy g'oyalarni tarannum etguvchi ko'plab she'rlari hofizlar tomonidan kuylanadi. Yurtdoshlarimiz u haqda xuddi o'z shoirimizdek katta mehr va ehtirom bilan so'zlaydi...

— To'g'ri, shuning uchun Prezidentimizning "Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumulni Firog'iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorida "O'zbekiston dunyoda Maxtumulni asarlari eng ko'p nashr qilinadigan va o'qiladigan mamlakatlardan



she'rlarini turkmanchada o'qigan o'zbek shoirlari beixtiyor qo'liga qalam olib, ularning tarjimasiga chog'lanadi. Shunga ko'ra, o'zbek tarjimasunoslik ilmidagi Maxtumulni she'rlari tadqiqi alohida o'rin tutadi. Ilm va adab ahli Maxtumulni she'rlarining bir necha tarjimasini borligini yaxshi biladi. Shu bilan birga, Maxtumulni she'rlari yangi tarjimalarining hamon davom etayotgani juda tabiiy va quvonarli holdir.

Shu o'rinda o'zbek-turkman adabiy aloqalarini ko'rsatib beruvchi mana bu



e'tiqodni, ahillik va hamjihatlikni, ajdodlar udumiga asoslangan hamdardlik va adolati kerashni qarshi qo'yadi. Bu tuyg'uni poetik so'z qudrati bilan ma'naviy qurol darajasiga ko'taradi. Davlatimiz rahbarining global dunyoning ayni damdagi iltifotlari va vulqonlariga javoban turkiy adabiyotning bu kabi noyob merosiga murojaat qilishi, ko'hna badiiy xazinani yodimizga solishi bejiz emas.

— Adabiyot, xususan, Maxtumulni ijodi hamma davrning ma'naviy kasalliklari uchun Haq dorisidir. Unda go'zal insoniylik fazilatlar — sadoqat, to'g'rilik, kamtarlik, vijdon, do'stlik, birdamlik va boshqa tushunchalar tarannum qilinadi. Bard odamni yaxshi ko'radi. "Haq so'zning ustida berar shirin jon". Kim shunday tabiiy? Bard odam shunday. Maxtumulni she'rlarining markaziy lirik obrazlaridan biri ham mard odamdur. Bard odamning holini shoir juda baland pafosda kuylaydi. Nomardning esa hamisha boshi egilgan, ichi kirlangan bo'ladi. "Mard kutar mehmonni ochiq yuz bilan, Nomard qochib qolar, mehmon uchrasa". Shoirning hayotiy tajribasi, o'z ko'zi bilan ko'rgan haqiqatlar bular.

Ayni damda shoirga tuban kimsalar va tubanliklar, johillar aslo yoqmaydi.

Garchi nasihatdir ellarga so'zing, El olmasdan avval amal qil o'zing, Olimga yondashsang, ochilar ko'zing, Johilga yondashsang, ko'rdek bo'larsan.

Globalashgan bugungi zamonda ham Maxtumulni yozganlari har bir inson uchun dasturlamal bo'lishga munosibdir. "Maxtumulni so'zi durdir buloganga". Maxtumulni qo'lyozmalarining umrboqiy she'rlari haqqoniy, samimiy, xalqchil bo'lgani uchun ham marvarid-durga o'xshaydi va har bir o'zbekning nafaqat kitob javoni, balki ko'ngil mulkidan ham muqim o'rin olgan, albatta.

— Tadqiqotchi Hamidulla Hasanov bunday yozadi: "Maxtumulni Firog'iy nihoyatda zo'r, ta'sirli, xalqqa yoqadigan, turkman ham, o'zbekka ham o'z tilidek tushuniladigan she'rlari bilan butun Sharqqa mashhurdir. Uning asarlarini Suriyada ham, Iroqda ham, Turkiya va Eronda ham, Afg'oniston va hatto uzoq Arabistonda ham turkmanlar faxr bilan kuylaydilar. Afg'onistonda bir kexsa turkman baxshisi borligini eshitdim, u Maxtumulni she'rlarini mahorat bilan ijro etishda nom chiqargani uchun o'zini "Maxtumulni" der ekan". Hofizlar orasida shoir she'rlari nega barcha ommalashgan? — Hofizlarga ham ilhom beradi Maxtumulni. Shuning uchun bu shoir xususida "Maxtumulni ijodi — ilhom bulog'i" degan muhim bir qarash ham bor. Men hofizlar, san'at ahli bilan bog'liq jihatlarini ucha yaxshi bilmayman. Biroq

turkman hofizlari orasida ulug' shoir she'rlarini kuylamagani aslo topilmaydi. Ayni damda mashhur hofizimiz Komiljon Otaniyozov shoir she'rlarini kuyga solib, ommalashtirganini ko'pchilik yaxshi biladi. Maxtumulni adabiy merosi, shuhrati O'zbekistonning boshqa viloyatlariga qaraganda Xorazmda keng yoyilgan va xalq qalbiga chuqur singib ketgan. Buning asosiy sabablaridan biri Maxtumulni she'rlarining Xorazmdagi o'zbek shevalari tiliga yaqinligida, shoirning Sherg'oz madrasasida tahsil olishi va asarlarining ko'p qismini Xorazmda yozganida bo'lsa kerak. Shuning uchun mashhur xonanda va bastakor Komiljon Otaniyozov "Xorazmi shoirning ikkinchi yurti" deb bemalol aytish mumkin", degan ekan. Hofizning an'anasi davom ettirgan san'atkorlar ko'p. Yaqinda Maxtumulniyning:

Makon tutib, uch yil ichdim tuzingni, Ketar bo'ldim, xush qol, go'zal Sherg'oz! O'tkazdim qish, bahoring —

Navro'zingni, Ketar bo'ldim, xush qol,

go'zal Sherg'oz! deb boshlanadigan she'rini ardoqli hofizimiz Karim Rahmon ijrosida eshitib, to'g'risi, juda ta'sirlandim.

— Ustoz, shu o'rinda ulug' turkman shoiri va mutafakkiriga bag'ishlab yozilgan asarlarga ham e'tibor qaratsak. O'zbekistonda Maxtumulni ijodini targ'ib va tarannum etuvchi o'ziga xos maktab vujudga kelgan, deb ayta olamizmi?

— Hali Maxtumulni ijodi ko'p, jiddiy va chuqur o'rganilishi lozim. Bizdagi adabiyotshunoslar orasida maxtumulniyotshunoslar borligi muhim. Maxtumulni qo'lyozmalari, turli nashrlari, ularning nusxalari, farqlari — bular tadqiq etilishi kerak. Shu bilan birga, keyingi o'n-o'n besh yilda o'nga yaqin yangi tarjimasini paydo bo'ldi. Ular ham tadqiqotlar uchun mavzu. Maxtumulni uslubida — maxtumulniyona she'rlar yozayotgan, Maxtumulniyona bag'ishlov yozgan shoirlar bor. Bular ham e'tiborga molik. Ayni damda Abdulla Oripovdek alloma shoirning tavsiya-da'vati bor:

Shoir ukam, o'qi Maxtumulni, Hikmatga yo'g'rilgan pandu nasihat. G'animat demish u umr yo'lini, Ha, umr o'tkinchi, umr g'animat.

Darhaqiqat, o'ziga, o'zligiga diqqat qaratishni, kimligini, bu dunyoga kelib-ketish mazmunini anglamoqni istagan har bir inson uchun Maxtumulni she'rlari mutolaasi doimiy ehtiyoj bo'lib qolaveradi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Muxtasar TOJIMAMATOVA suhbatlashdi.

Zukko bobolarimiz shoir ovoz sohibi Komiljon Otaniyozovning asulasini ohista bosh tebratib tinglar, Maxtumulni topib aytgan so'z, Komiljon hofizning sehirli ovozdin mast bo'lardi. Ijod ahlining tengsiz hamkorligida yaralgan qo'shiq o'zbek, turkman — hammamizning dardimiz, qalbmiz, ohanglarimiz birligidan nishona.

Yaqinda Ashxobod shahrida turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumulni Firog'iy tavalludining 300 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan "Zamon va sivilizatsiyalarning o'zaro bog'liqligi — tinchlik va taraqqiyot asosi" mavzusidagi xalqaro forumni tomosha qilayotib beixtiyor bolaligimizdagi o'sha damlar esimizga tushdi. Forum ishtirokchilari qalbidagi jo'sh urgan do'stlik va birdamlik chorlaguvchi ma'naviy chashmaning zilol nafasini his qildik. Ayniqsa, xalqaro forum yakunida Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov davlatimiz rahbariga "Maxtumulni Firog'iyning 300 yilligi" esdalik medalini tantanali ravishda topshirgani barchamizni birdek quvontirdi.

Ikki qaradosh xalq yozuvchi va shoirlarining samarali ijodiy muloqoti, asarlarni tarjima qilishi uchun imkoniyatlar tobora kengayib borayotgani, albatta, quvonarli. Ayni jarayon borasidagi mulohazalar va yangiliklarni sizga taqdim etish niyatida tanikli adabiyotshunos olim Bahodir Karimga murojaat qildik.

— Joriy yil fevralda Prezidentimizning "Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumulni Firog'iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Ayni qaror doirasida turkman xalqining ulug' farzandi Maxtumulni Firog'iy nafaqat turkiy xalqlar, ayni paytda jahon adabiyoti va madaniyati tarixida alohida o'rin egallagan atoqli shoir va mutafakkir ekani ta'kidlangan. Nima uchun Maxtumulniyning "Turgil dedilar" she'ridagi tafsilot Bertelsni qiziqtirib qolgan? Keling, suhbatimiz avvalida shoir ijodining jahon adabiyotidagi o'rnini belgilaydigan ayni paytdagi e'tiborga molik tadqiqotlarga to'xtalsak...

— Har bir millat tarixida uni dunyoga tanitadigan shaxsiyatlar, olimlari, shoirlari, mutafakkirlari bo'ladi. Bu yil ilm va adabiyot ahli 300 yilligini keng nishonlayotgan donishmand shoir



Maxtumulni Firog'iy turkman millatiga shon-shuhrat keltirdi. Zero, turkman she'riyati tarixi xususida so'z ochiladigan bo'lsa, avvalo, Maxtumulni tilga olinadi. Xususan, biz — o'zbeklarda beixtiyor hikmatli so'zlarga aylangan "Boy bo'lay deb izzatingdan ayrilma" tarzidagi misralari aytiladi. Y.E.Bertelsni shoirning bu she'ri bejiz qiziqirmagan bo'lsa kerak. Chunki she'r tush hodisasi bilan bog'liq. Tush esa badiiy adabiyotda ruhiy-psixologik hodisa sifatida keng o'rganiladi. Shu bilan birga, "Turgil dedilar" she'rida Maxtumulni ma'naviyati, dunyoqarashi va she'riyatining qaysi ulug'larga borib taqalishini ham ko'rish mumkin.

"Ul Bahouddindir, ul komil erdir, Biri Zangi bobo, ul ham nomdordir, Suyanishib turgan ul to'rt choryordir, Maqsading ne bo'lsa, aytil!" dedilar.


Shoir ulug'lardan duo, oq fotiha oladi. She'rni, zarur bo'lsa, ancha sharhlash mumkin. Dunyodagi maxtumulniyotshunoslikka keladigan bo'lsak, men shoir ijodi bilan major olimi H.Vamberi shug'ullanganidan xabarim bor. Maxtumulni she'rlarini nemis tiliga o'girib, jurnalda e'lon qiladi va XIX asr o'rtalarida Yevropaga tarqatadi. XX asr boshlarida Orenburgda nashr bo'lgan "Sho'ro" jurnalida Zaki Validiy To'g'onning Maxtumulniyona bag'ishlangan maxsus maqolasi va "Devon"i uchun tuzilgan ko'rsatkich e'lon qilinadi. Turkiy adabiyot tarixi bilan shug'ullangan rus olimlari ham Maxtumulni ijodiga befarq bo'lmagan.



biri sifatida e'tirof etilishi, albatta, bejiz emas. Yurtimizda mumtoz shoirning she'rlari va ular asosida yaratilgan qo'shiqlar kirib bormagan xonadon, uning nomini bilmaydigan o'zbek topilmaydi. Maxtumulni asrlar mobaynida xalqimizning o'z shoiriga aylangan, degan muhim bir fikr aytiladi. Zotan, adabiyot muhblariga birdek suyuqli bo'lgan Maxtumulniyona she'riy olami hamma zamonlarda so'z zahmatkashlarini bezovta qilib keldi. Shoir

ma'lumotlarga ham to'xtalib o'tsak. O'zbekistonda yaqin yillar ichida turkman xalqi milliy yetakchisi Gurbanguli Berdimuhamedovning "Baxtli hayot sog'liqdan boshlanar", "Madaniyat — xalqning bebaho xazinasi", "Barhayot afsona", "Choy — shifo va ruhiy quvvat manbai" asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi. Shuningdek, 2022-yilda nashr qilingan "Turkiy adabiyot namunalari" 100 jildli asarlar majmuasining 9 ta jildi turkman adabiyotiga ajratilgan bo'lib, unda turkman mumtoz adabiyotidan to bugungi kunda ijod qilayotgan shoir va yozuvchilar asarlarining o'zbek tiliga tarjimalari jamlangan. Turkman mumtoz adabiyotidan Mullanasaf, Maxtumulni, Andalib, Zaliliy, Kamina, Oshiqiy, XX asr adabiyotidan Xidir Deryayev, Berdi Kerboboyev, Qayum Tangriquliyev, Oraz Yag'mur, Otajon Tog'on romanlari kiritilgan. Zamonaviy turkman she'riyati va nasri antologiyasiga Qora Seytli, Berdinazar Xudoynazarov, Nuri Bayramov, Omongo'zal Shuquliyeva kabi shoirlar, Beki Saytaqov, Orazqul Onnayev, Qadamurod Atoyev kabi yozuvchilar hikoyalari bor.

— Ulug' shoir o'z davrining jarohatlariga aql-zakovatni, imon va



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3728. 41218 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy